

5. Epure, Manuela & Barna, Cristina & Vasilescu, Ruxandra. (2011). *Ecotourism – conservation of the natural and cultural heritage. Published in Review of Applied Socio-Economic Research. 1.* 87-96.
6. Drake, S.P., 1991. *Local participation in eco-tourism projects. In T.Whelan. (Ed.). Nature tourism: Managing for the environment. (pp. 133 – 163). Washington D.C.: Island Press.*
7. Drumm, Andy & Moore, A.. (2005). *Ecotourism Development - A Manual for Conservation Planners and Managers. Volume I - An Introduction to Ecotourism Planning.*
8. Bellato, L., & Cheer, J. M. (2021). *Inclusive and regenerative urban tourism: Capacity development perspectives. International Journal of Tourism Cities, 7(4), 943–961.* <https://doi.org/10.1108/IJTC-08-2020-0167>

## **KOMPETENSIYA HAMDA KOMPETENTLIKNING MEHNATNI MUHOFAZA QILISH SOHASI TEXNIKA XAVFSIZLIGIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**

*Umarov Alisher*

*Mehnat bozori tadqiqotlari instituti tayanch (PhD) doktoranti*

Kompetensiya hamda kompetentlik xodimlarning mehnatini muhofaza qilish, xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlash sohasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hozirgi zamonda mehnat jarayonining murakkabligi hamda potensial xavf xatarlarning yuqoriligi bois nafaqat zarur bilim va ko'nikmalarga balki o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va favqulodda vaziyatlarda ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlarga ega talab qilinmoqda. Mehnatni muhofaza qilish har qanday tashkilotda, uning hajmi va sanoatidan qat'i nazar eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tashkilotlar o'z xodimlarining xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashga mas'uldirlar va bu ushbu sohada tegishli bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni talab qiladi.

Xodimning texnika xavfsizligida asosiy vazifalaridan biri mehnat sharoitlari va xavfsizlik talablarini tartibga soluvchi qonunchilik normalari va qoidalarini bilishidir. Mutaxassislar amaldagi me'yoriy hujjatlarni yaxshi bilishlari va ularni amalda qo'llay olishlari kerak. Bunga ish joyidagi talablar, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari, yong'in xavfsizligi tartiblari va boshqa muhim qoidalarni bilishlari va amal qilishlari kiradi. Bundan tashqari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarning muhim vazifasi favqulodda vaziyatlarda holatni to'g'ri baholash va birinchi yordam ko'rsatish qobiliyatidir. Birinchi yordam ko'nikmalari hayotni saqlab qolishi va jarohatlarning yomonlashishini oldini oladi.

Kompetensiyaning texnika xavfsizligi, xodimning ish samaradorligi, karerasining o'sishi, hayot davomida ta'lim olishida asosiy ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtga kelib mutaxassislarning ish samaradorligi hamda muvaffaqiyatga erishishida ishlay digan mexanizm bo'yicha o'qitish global hal qilinishi dolzarb bo'lgan muammoga aylangan.

Kompetensiya – (sompete – erishyapman, munosibman, loyiqman) muayyan davr organi (mahalliy o'zining o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav

yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi, u yo bu sohadagi bilimlar tajribalar, shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi [1].

Kompetentlilik – ma’lum holat xususida to’g’ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo’lish, dalil, isbotli fikr, kishining muayyan sohadagi saviyasi, pedagogning barcha imkoniyatlardan foydalana olishi, o’ziga va o’z ishiga nisbatan talabchanligi, maktab, oila va mahalla hamkorligini yo’lga qo’ya olishi, o’z ishining ustasi bo’lgan sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o’zini o’zi rivojlantiruvchi hamda o’z qobiliyati va imkoniyatlarini to’la ishga sola biladigan pedagogik layoqati [1].

Umumkasbiy kompetensiya – soha yo’nalishiga tegishli bo’lgan kasbiy faoliyat uchun umumiy fundamental kasbiy bilim, ko’nikma va kasbiy qobiliyatlar majmui asosida shakllanadi [3]. Umumkasbiy kompetensiyalar asosida kasbga doir hujjatlar bilan ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ish yuritish qoidalariga amal qilish, maqsadga erishish yo’llari va muqobillarini mustaqil rejalashtira olish, jamoada ishlash, yakka tartibda biznes yuritish, o’zbek tilini mukammal bilish, fikrlarini yozma va og’zaki ravon bayon etish, xorijiy tilda og’zaki va yozma muloqot o’rnatish va boshqalar kabi layoqatlarini shakllanishi nazarda tutiladi.

“Kompetensiyalar turkumi” tushunchasi ta’lim natijalari sifatida mehnat bozorida raqobat qilish, ijtimoiylashuv va barqarorlikni ta’minlash sharti sifatida kompetensiyalar majmuasini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan xalqaro tajribaga muvofiq professional ta’limda kompetensiyalar turkumini 4 toifaga bo’lib tasniflashni tavsiya etdik. Xususan, umummadaniy, shaxsiy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar. [4].

Kasbiy kompetensiya – shaxsning ishlab chiqarish faoliyatini potensial faolligi, tayyorligidir. Kasbiy kompetentlilik ishlab chiqarish faoliyatidagi kasbiy vazifalarini samarali hal qilishlari uchun zarur bo’lgan kasbiy bilim, ko’nikma, malaka va amaliy tajriba asosida shakllanadi hamda kasbning yoki lavozimning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, belgilanadi. Shaxsning egallagan kasbi yuzasidan qanday ko’nikma va ishbilarmonlik fazilatlariga ega bo’lish layoqatlarini shakllanishi nazarda tutiladi.

O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo’yicha ishlar izchil amalga oshirilmoqda. [2].

Shu bilan birga, professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg’unlashmaganligi, o’quv jarayoniga O’zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to’laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o’rin egallashlariga to’sqinlik qilmoqda. [2].

Professional ta’lim tizimini ilg’or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali

mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish asosiy maqsad qilib belgilangan. [2].

Xorijiy va mahalliy mehnat bozori, ish beruvchilar tomonidan mutaxassislarga qo'yilayotgan malaka talablarini puxta o'rgangan holda biz tayyorlayotgan mutaxassislar uchun qanday kompetensiyalar zarur bo'lishini oldindan aniq belgilab olishimiz hamda ta'lim jarayonini shunga moslab, tashkil etishiz lozimligini anglatadi.

Xulosa. Kompetensiyalar asosan real ish o'rnida aynan natija va samaradorlikka qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Har bir mamlakatning mehnat bozori o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanganligi sababli tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona va umume'tirof etilgan ro'yxati hanuzgacha shakllanmagan. Kompetensiya - bu jarayon yoki vaziyatga asoslangan holda ish joyidagi samarali va/yoki yuqori natijalar bilan bog'liq bo'lgan shaxsning asosiy xususiyatidir. Kompetensiya – har bir ish beruvchining ish jarayonidan kelib chiqib o'z xodimlariga qo'ygan talabi bo'lganligi sababli farqli jihatlarga ega. Kompetensiyalar: texnik va turli bilim va ko'nikmalar, shuningdek, xatti-harakatlar va yashirin bo'lgan motivlar, xarakter xususiyatlari va o'zini o'zi anglash.

#### *Adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Pedagogika: ensiklopediya I jild. – T.: O'zbekiston, 2015. 376 b.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni*
3. *Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. //Ped. fan. dok... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2017. 45 b.*
4. *Xolmuxamedov M.M. Ta'lim natijalari konsepsiyasi asosida professional ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning ilmiy-metodik asoslari dissertatsiya, Toshkent–2023.*

## **O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DEMOGRAFIYANING O'RNINI**

*Abduraxmanova Zuxra*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
tayanch doktoranti*

Odatda har qanday mamlakatda yuqori demografik sur'at, aholi soni va nikohlarning yuqori tezlikda ortib borishi uning iqtisodiy parametrlariga bosimni oshirish bilan birga, ushbu yo'nalishda qator muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Dunyoning qator mamlakatlari, birinchi galda iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlar aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi, bunga teskari proporsional tarzda iqtisodiyot rivojlanishi past bo'lganligi bilan ajralib turadi. Osiyoning janubiy, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan qator mamlakatlarda ana shu jihatlarni ko'rish mumkin. Lekin bularning barchasiga qaramay, agar mamlakat to'g'ri va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib